

Arife Aydin

# SALOMLASHISH

## NAQADAR GO'ZAL



NUR

TARJIMONLAR  
GURUHI

1-kitob



Bilag'on tongda juda erta  
uyg'ongan edi. Nonushtasini  
qilar-qilmas uychasi  
joylashgan daraxtga chiqdi  
va har doimgi kabi baxt  
she'rini ayta boshladi:



Xayrli tong, Quyoshjon,  
Yana chiqding, ko'p shukr.  
Nur taratib har tomon,  
Qalblarni ham ilit hur!

So'ng daraxt shoxida  
ketayotgan **Shilliqvoyni**  
ko'rib qoldi:  
- Salom, Shilliqvoy  
do'stim. Xayrli tong.  
Bugun juda ajoyib kun  
bo'lyapti-a?



Ammo Shilliqvoy javob  
bermadi. Bilag'onga xayrli  
tong ham tilamadi. Va  
ustiga ustak u qovog'ini  
ham solib olgan edi. Bilag'on  
hayron bo'ldi. Ajab-o,  
Shilliqvoy nima uchun o'zini  
bunday tutdi?

Bilag'on shularni o'ylab  
turganida, **Aqlvoyning** ovozi  
eshitildi:

- Bilag'oon, qayerdasaaaan?  
Bilag'on Aqlvoyning yoniga  
sezdirmasdan, jimgina  
yaqinlashdi. So'ng past ovozda:  
- **Shu yerdamaan,** - deb  
shivirladi.





Aqlvoy qo'rqib ketdi.  
Qattiq qo'rqqanidan sakrab  
yuborganini ham bilmay qoldi.  
- **Ey do'stiiim**, - dedi u. Meni  
nima uchun qo'rqiitding?  
Jimgina o'tirib seni  
kutayotgandim. **Qo'rquvdan**  
**sakrab boshimni daraxt**  
**shoxiga urib olishimga**  
**oz qoldi.**

Bilag'on hech narsa demadi. Faqatgina **jilmayib** qo'ydi. So'ng suhbatlasha boshlashdi. Ular bir birlariga shu paytgacha nimalar qilishganini aytib berishdi.



Bilag'on Shilliqvoyni  
ko'rganini, ammo Shilliqvoy u  
bilan salomlashmaganini aytib  
berdi. Aqlvoy ham:

- Menga ham xuddi shunday  
qildi, - dedi. **Salom ham  
bermadi, tabassum ham  
qilmadi.**

So'ngra maslahatlasha  
boslashdi. Ular bu vaziyatga  
chora topmoqchi edilar. Chunki  
**Shilliqvoy buni atayin qilmadi, deb**  
taxmin qilishdi. Agar shunday  
bo'lsa, bu haqida uning o'zidan  
so'rashlari  
kerak edi.



So'ngra darrov ishga  
kirishishdi. Shilliqvoy  
o'tadigan yo'lni tahmin qilib,  
o'sha yo'l chekkasiga  
borishdi va uning kelishini  
kuta boshlashdi. Birozdan  
so'ng Shilliqvoy ko'rindi.  
Qovog'idan yana qor  
yog'ayotgan edi.



Aqlvoy va Bilag' on xafa  
bo'lib, qoshlarini chimirib,  
umuman gaplashmay  
o'tirishdi. Shilliqvoy  
ormalab-ormalab kela  
boshladi. Aqlvoy va  
Bilag' onga yaqinlashganida  
ularga ko'zi tushdi.


Ammo hech narsa demadi.  
Shu shaklda yana biroz  
yurdi. So'ngra yana ular  
tomonga yuzlandi. **Shilliqvoy**  
nimadir demoqchiday  
ko'rindi-yu, ammo yana hech  
narsa demadi.



Yana biroz ildamlagandan so'ng:

- Nega qovog'ingizni uyib jim  
o'tiribsizlar, - dedi. Sizlarga nima  
bo'ldi?

Bu safar Aqlvoy va Bilag'on  
javob berishmadi. Shilliqvoyga  
qarab, yana qosHLarini chimirib,  
qovoqlarini solib olishdi.



Shilliqvoy hayron edi. Nima bo'lganini bilishga harakat qildi. Aqlvoy va Bilag'onga qarab yana gap boshladi:  
- Sizlarga nima bo'lganini va menga nega javob bermayotganingizni  
aytasizlarmi?

Aqlvoy va Bilag'on bir-birlariga qarashdi, ortiq chiday olmay kula boshlashdi.



Shilliqvoy hech narsaga tushunmayotgan edi. Shu sabab ularning yuzlariga hayron bo'lib qarab turardi:

- Ikkingizdan biringiz menga nima bo'layotganini tushuntirib berasizmi?



Aqlvoy va Bilag'on  
baravariga gapira  
boshlashdi: – Sen bizga  
qanday ko'rinyotganiningni  
bilishing uchun atayin  
shunday o'yin qilgandik.

Shilliqvoy gap nimadaligini  
tushuna boshladi. Aqlvoy va  
Bilag'onga qarab:

- Mening o'zimni tutishim  
shunchalar qo'rqinchlimi? - deb  
so'radi. Ikkovlon baravar "Ha"  
ma'nosida bosh chayqashdi.  
So'ng hammalari birgalashib  
kula  
boslashdi.

Shilliqvoy xatosini  
tushundi. U salomlashish  
va tabassum qilish aslida  
qay darajada muhim  
ekanligini tushunib  
yetgandi.





## HIKOYAGA OID SAVOLLAR:

20

### Salomlashish naqadar go'zal



- 1 Bilag'on Shilliqvoy bilan ko'rishganda unga aytgan ilk so'zi nima bo'ldi?
- 2 Salom bergen Bilag'onga Shilliqvoy qanday munosabat bildirdi?
- 3 Bilag'on Aqlvoyga nima qilgani uchun Aqlvoy qo'rqqanidan sakrab yuborgan edi?
- 4 Bilag'on va Aqlvoy, Shilliqvoy xatosini tushunishi uchun qanday reja qilishdi?
- 5 Shilliqvoy qilgan ishi noto'g'ri ekanligini tushunib yetganida nimalarni anglab yetdi?

## LABIRINT

21




Bilag'on Shilliqvoy bilan ko'rishishni istaydi.  
Sizningcha, Bilag'on qaysi yo'ldan borishi kerak?



## SOYALARНИ MOSLA

22

Qaysi soya kimga tegishli?




Ikki rasmdan 7ta farqni toping!



# NUQTALARNI BIRLASHTIR

24

Ajabo, nuqtalarни birlashtirgach, nimani rasmi chiqar ekan?



TARJIMONLAR

Nuur

TARJIMONLAR  
GURUHI

*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar  
guruhi tomonidan o'girildi. Duolaringizdan umidvormiz!*

 @nuur\_uz